
Jarayon

Qo'shtepa tumanidagi "Garmdon" mahallasi xotin-qizlar faolining tashabbusi bilan mahalla "Oqila ayollar" harakati a'zolari tomonidan hududda joylashgan qabristonda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari amalga oshirildi. Tadbir davomida qabriston hududi tozalanib, daraxt va gul ko'chatlari ekildi.

Shuningdek, mahalla hududida joylashgan 16-umumta'lim maktabida xotin-qizlar o'rtasida atrof-muhitni muhofaza qilish, farzandlar tarbiyasida oilaning o'rni, qizlarni mustaqqil hayotga tayyorlash, oilaviy ajrimlarni hamda xotin-qizlar jinoyatchiligini va huquqbuzarliklarni oldini olish masalalarida davra suhbatlari bo'lib o'tdi.

Tadbirda tuman hokimi o'rinbosari, oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i M.Yuldasheva ishtirok etdi.







2024-11-26 09:00:17